

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

2-son (5-jild)

**2025**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 2 (5) - 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxonovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

*22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

|   |       |
|---|-------|
| <i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i><br>SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUIJATLARINI SAQLASH<br>VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI .....               | 13-19 |
| <i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i><br>MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR<br>O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK ..... | 20-24 |
| <i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i><br>TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI<br>HARAKATLARI TARIXIDAN .....         | 25-29 |
| <i>Xurramova Saodat Xabibovna</i><br>ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ<br>В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА .....  | 30-37 |
| <i>To'uchiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i><br>ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOYIY,<br>IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI .....                             | 38-44 |
| <i>Elboyeva Shaxnoza</i><br>AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-<br>TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKISTON TAJRIBASI .....        | 45-50 |
| <i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i><br>TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA .....  | 51-54 |
| <i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i><br>MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN<br>KADRLAR TAYYORLASH MASALASI .....                      | 55-60 |
| <i>Bekbayev Bekjon</i><br>XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN .....   | 61-67 |
| <i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i><br>JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA<br>DOIR BA'ZI CHIZGILAR .....                     | 68-71 |
| <i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i><br>LO'LILAR IJTIMOYIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....   | 72-78 |
| <i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i><br>ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM<br>OMILLARIDAN BIRI (1701-1876) .....                      | 79-84 |

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

|   |       |
|---|-------|
| <i>Kazakov Olim Sabirovich</i><br>XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSIYALARIDAN<br>FOYDALANISH ..... | 85-89 |
|---|-------|

|  |         |
|--|---------|
| <i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i><br>РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ<br>УЗБЕКИСТАН .....  | 90-98   |
| <i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i><br>QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSİYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ<br>XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI ..... | 99-106  |
| <i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i><br>O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH<br>YO'LLARI .....  | 107-113 |
| <i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i><br>CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI<br>OSHIRISH YO'LARI .....  | 114-121 |
| <i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i><br>MULKIY SOLIQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI .....  | 122-132 |
| <i>Komilov Bakhtiyorjon</i><br>UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA .....   | 133-144 |
| <i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i><br>MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI<br>TAKOMILLASHTIRISH .....  | 145-150 |
| <i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i><br>DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI .....   | 151-155 |
| <i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i><br>MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....   | 156-160 |
| <i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i><br>DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH<br>MASALALARI .....   | 161-166 |
| <b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>  |         |
| <i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i><br>ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING<br>ZAMONAVIY IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI .....      | 167-175 |
| <i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i><br>FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIIY YUKSALISH MUAMMOLARI .....  | 176-179 |
| <i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i><br>BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT<br>TARAQQIYOTINING ASOSI .....  | 180-184 |
| <i>Berdaliyeva Sevara</i><br>ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE<br>IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG" .....                                      | 185-191 |
| <i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i><br>SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIIY-FALSAFIY OMILLARI .....  | 192-197 |
| <i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i><br>IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY<br>ASOSLARI VA AHAMIYATI .....  | 198-202 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i><br>ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI .....  | 203-206 |
| <i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i><br>AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING<br>DIALEKTIK MAZMUNI .....                                       | 207-213 |
| <i>Xasanov Boburjon Yakimovich</i><br>EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI .....  | 214-219 |
| <i>Shokirov Mubin Rustamovich</i><br>MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT .....   | 220-225 |
| <i>Ismoilov Maxammadixon</i><br>HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV<br>MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI .....                            | 226-230 |
| <i>Shokirov Murod Rustamovich</i><br>YANGI O'ZBEKISTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI .....  | 231-234 |
| <i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i><br>YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASIDA IJTIMOY ADOLATNING BARQAROR<br>TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI ..... | 235-239 |
| <i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i><br>ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI<br>(TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI) .....             | 240-243 |
| <i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i><br>INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING<br>IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI .....                                    | 244-249 |
| <i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i><br>BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI<br>QARASHLARI MISOLIDA .....                                   | 250-253 |
| <i>Ibragimov Kudrat</i><br>XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL<br>DAVLATLARI .....   | 254-260 |
| <i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i><br>VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOY-FALSAFIY<br>TALQINI .....                                      | 261-267 |
| <i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i><br>RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI<br>VA ASOSIY KOMPONENTLARI .....                     | 268-274 |
| <i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i><br>YOSHLARDA IJTIMOY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM<br>XUSUSIYATLARI .....                              | 275-281 |
| <i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i><br>IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING<br>TARQALISHI .....                                     | 282-285 |

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

|  |         |
|--|---------|
| <i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i><br>SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI<br>(INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....                                | 286-289 |
| <i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i><br>MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH .....  | 290-296 |
| <i>Babadjanova Nazokat Davronbekovna</i><br>"YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI .....  | 297-302 |
| <i>Sayidova Shakhrizoda Nasrulloevna</i><br>RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD<br>ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT" .....  | 303-308 |
| <i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i><br>TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA .....  | 309-316 |
| <i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i><br>TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJIY TILSHUNOSLAR TOMONIDAN<br>O'RGANILISHI .....   | 317-321 |
| <i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i><br>SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING<br>SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI .....                      | 322-326 |
| <i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i><br>PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS<br>AMONG THE LANGUAGES .....  | 327-331 |
| <i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i><br>OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI<br>VA RANGLAR IFODASI .....   | 332-338 |
| <i>Babayeva Iroda</i><br>THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR<br>STRUCTURE AND MEANING .....   | 339-342 |
| <i>Fozilov Odil Yuldashevich</i><br>USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK<br>LANGUAGE.....   | 343-346 |
| <i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i><br>JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI<br>TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA) ..... | 347-351 |
| <i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i><br>TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI .....  | 352-357 |
| <i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i><br>KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS<br>XUSUSIYATLARI .....   | 358-363 |
| <i>Mengboyev Azizbek Alijon o'g'li</i><br>INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING<br>CHOG'ISHTIRMA TADQIQI .....  | 364-368 |
| <i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i><br>INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI .....  | 369-373 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i><br>SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK<br>MASALASI .....  | 374-378 |
| <i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i><br>MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK<br>VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI .....                                    | 379-385 |
| <b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>   |         |
| <i>Muxitdinova Firюза</i><br>КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ<br>НОВОГО УЗБЕКИСТАНА .....  | 386-393 |
| <i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i><br>HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI .....   | 394-403 |
| <i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloev Shavkat</i><br>INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA<br>RIVOJLANTIRISH .....  | 404-414 |
| <i>Yakubova Iroda Bahramovna</i><br>MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING<br>ASOSIY SHARTLARI .....   | 415-419 |
| <i>Obidov Tolibjon Avezxanovich</i><br>JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK<br>MASALALARI .....   | 420-425 |
| <i>Tuxtashev Sherzod Azimovich</i><br>JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI<br>UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI .....  | 426-430 |
| <i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i><br>INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMOYA QILISH MASALALARI .....  | 431-436 |
| <i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i><br>BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING<br>DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI .....       | 437-441 |
| <i>Jumaniyozova Dilfuza Kamolovna</i><br>IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI:<br>XORIY TAJRIBASI .....  | 442-447 |
| <i>Shermatov Nuriddin</i><br>RAQAMLI ERADA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING)<br>TEKNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA .....                       | 448-455 |
| <i>Juraeva Asal</i><br>EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS .....   | 456-461 |
| <i>Sobirov Sauidbek Maxmudovich</i><br>ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО<br>ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О<br>НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ ..... | 462-467 |
| <i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i><br>DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY<br>DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH .....   | 468-478 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i><br>INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY<br>ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI .....   | 479-485 |
| <i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i><br>SUN'YI INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI<br>MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR .....  | 486-491 |
| <i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i><br>MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY<br>VA FALSAFIY MOHIYATI .....   | 492-500 |
| <i>Yusupov O'ktambov</i><br>KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY<br>OQIBATLARI .....   | 501-509 |
| <i>Murodxonov Muhammadnur</i><br>XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL<br>ASARLARNING O'RNI .....  | 510-518 |
| <i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i><br>МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ:<br>БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ<br>ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ .....               | 519-523 |
| <i>Qudratillayev Hazratali Zokirjon o'g'li</i><br>JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI<br>TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI<br>BILAN HAMKORLIK MASALALARI .....    | 524-530 |
| <i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i><br>SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI .....   | 531-536 |
| <i>Хайдарова Хилола Анваровна</i><br>ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ<br>С ИНВАЛИДНОСТЬЮ .....  | 537-542 |
| <b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>   |         |
| <i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i><br>AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL<br>XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR<br>STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI ..... | 543-547 |
| <i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i><br>RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT<br>XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI<br>ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI .....   | 548-554 |
| <i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i><br>7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI<br>ORQALI RIVOJLANTIRISH .....  | 555-561 |
| <i>Karimov Qayum Mamashayevich</i><br>KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ<br>TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH .....   | 562-569 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i><br>MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI<br>RIVOJLANTIRISH JARAYONI .....  | 570-576 |
| <i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i><br>IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINFLAR O'QUVCHILARINING<br>INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA<br>MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH<br>MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA ..... | 577-582 |
| <i>Тлеумуратова Абадан Бекбановна</i><br>ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ<br>КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ .....  | 583-585 |
| <i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i><br>TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI<br>RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR .....   | 586-592 |
| <i>Mamaziyayev Oblaberdi</i><br>OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN<br>FOYDALANISH AFZALLIKLARI .....  | 593-598 |
| <i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i><br>YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR<br>XORIJIY MODELLARI .....   | 599-605 |
| <i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i><br>BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI .....   | 606-610 |
| <i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i><br>BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN<br>FOYDALANISH USULLARI .....   | 611-614 |
| <i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i><br>AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON<br>PORTRETINI ISHLASH METODIKASI .....  | 615-621 |
| <i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i><br>BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI<br>RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI .....  | 622-625 |
| <i>Elova Sitara Axmatkulovna</i><br>QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI<br>SHAKLLANISH DARAJASI .....   | 626-629 |

**Received:** 25 January 2025  
**Accepted:** 1 February 2025  
**Published:** 10 February 2025

*Article / Original Paper*

## **TERMINOLOGICAL VOCABULARY IN THE LANGUAGE OF COMMERCIAL DOCUMENTS**

**Hatamova Kamola**

Doctoral student of the Institute of Uzbek Language,  
Literature and Folklore

E-mail: [kamolakhatamova@gmail.com](mailto:kamolakhatamova@gmail.com)

**Abstract.** In this article, the terminological lexicon of the language of commercial documents is studied, while the current globalization process has an impact on all fields and scientific and technical processes, this process has not affected the terminological lexicon of the language of commercial documents. In the article, the role of the terminological lexicon used in today's consumption in the language of commercial documents is analyzed.

**Keywords:** language of commercial documents, terminological lexicon, lexical interpretation. Neutral words, modern linguistics, words with a limited scope of use, words without a limited scope of use.

## **TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA**

**Hatamova Kamola Toshmurod qizi,**

O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tijorat hujjatlari tilining terminologik leksikasi o'rganilgan bugungi globallashtirish jarayoni barcha sohalar hamda fan texnika jarayonlariga ta'siri namoyon bo'layotgan bir qatorda bu jarayon tijorat hujjatlari tilining terminologik leksikasiga ham ta'sir etmay qolgani yo'q. Maqolada bugungi iste'molda qo'llanilayotgan terminologik leksikaning aynan tijorat hujjatlari tilidagi o'rni tahlil ostiga olingan.

**Kalit so'zlar:** Tijorat hujjatlari tili, terminologik leksika, leksik talqin. Neytral so'zlar, zamonaviy tilshunoslik, iste'mol doirasi chegaralangan so'zlar, iste'mol doirasi chegaralanmagan so'zlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N49>

**Kirish.** Tijorat hujjatlari tilining asosiy xususiyatlaridan biri uning neytralligidir. Bu sifat uning uslubiy bo'yoqqa ega bo'lmagan barcha uslubda birdek ishlatiladigan so'zlarni qo'llashni talab etadi. Terminlar esa ana shunday xususiyatni o'zida jam etgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham tijorat hujjatlari tilida terminlardan keng foydalaniladi. Vikipediya izohli lug'atida terminga quyidagicha ta'rif berilgan.

Termin (lotincha: *terminus*- "chegara", "had",) bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi[7]. Hozirgi kunda "termin" so'zi bilan bir qatorda "atama", "istiloh" so'zlari ham ayni shu ma'noda qo'llanmoqda. Lekin ular "termin" so'zining hozirgi ma'nosini to'liq ifoda eta olmaydi. "Atama" so'zi keng ma'noda bo'lib, geografik obyektlar, atoqli nomlarga nisbatan qo'llanadi. "Istiloh" so'zini esa termin ma'nosida tarixiy mavzulardagi matnlar (masalan: adabiyot tarixi, Sharq falsafasi va boshqalar)da bema'lol qo'llash mumkin.

Tilshunos olim A. Reformatskiy terminga ta'rif berar ekan: terminlar – maxsus so'zlardir" deydi. U birgina shu fikri bilan termin ta'rifini ortiqcha tashbeharsiz, bahsarsiz sodda tushuntirib qo'ygandek go'yo. Ammo terminologiya bo'yicha tadqiqot olib borayotgan boshqa tilshunoslarning fikri esa rang-barangdir. Bir qaraganda fikrlar turlicha bo'lsada mohiyatan birdek. Har bir sohaning o'z murojaat qiladigan ma'lum terminologik birliklari borligi uning o'rganish va tadqiq qilish zaruratini oshiradi nazarimizda.

Aynan shu jihatdan olib qaralganda ham tijorat hujjatlari tilini terminologik til deb ham aytish mumkin. Tijorat hujjatlari tilida terminlar nutqning boshqa turlariga nisbatan juda faol qo'llaniladi. Bu esa o'z navbatida matnning ixchamlashuvi hamda konkretlashuvini ta'minlaydi. Terminlarni umumiste'moldagi so'zlar bilan ajratib olganda tijorat hujjatlari tilidagi terminologik leksikani yaxshi farqlay olish mumkin. Tadqiqotimiz davomida N.A. Husanov va N.A. Dilmurodovlarning "O'zbek tili" fanidan o'quv-uslubiy majmuasida ba'zi fikrlarni uchratdik.

Tilshunoslarning fikriga ko'ra termin tushunchasiga yuklangan mazmun quyidagicha belgilarga asoslanadiki, bular terminlarni umumiste'moldagi so'zlardan farqlash uchun yetarli bo'lishi mumkin:

*termin — umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo'lmish ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so'z yoki birikmadir;*

*termin-konkret narsa-predmet, ashyo, mavhum tushunchalarning maxsuslashtirilgan nomidir;*

*termin uchun muayyan ta'rif (definiitsiya) zarur bo'lib, uning yordamida tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchaning birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda ma'lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga yo'l qo'yuvchi, farqlovchi belgilarni ravshanroq ko'rsatish mumkin.*

Terminologik tizimlar fan-texnika taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib, boyib boradi. Terminlar umumiste'moldagi so'zlardan farqli ravishda joriy qilinib ularning qo'llanishi ma'lum darajada nazorat ostida bo'ladi. "Terminlar shunchaki paydo bo'libgina qolmaydi" aksincha, ularning tabiiy zaruriyati, ehtiyoji anglangan holda "o'ylab topiladi", "ijod qilinadi". Masalan, tijorat hujjatlari tili lingvistikasida kartel, kliring, tovar oboroti, mayda mulkchilik, mablag' ajratish, renta, oferta, chegirma, to'lov turi, pul o'tkazma kabi tor doiradagina qo'llaniladigan terminlar ishlatilishi tabiiy bir holdir. O'z-o'zidan ayonki, bu xildagi terminlar iqtisodiyotdan uzoqroq biror kasb egasining nutqida faol ishlatilmaydi. Shu bilan birga, tijorat hujjatlari tilida qo'llaniladigan qator terminlari ham borki, ular muayyan til egalarining deyarli barchasi nutqida bab-baravar ishlatilaveradi: bozor, kirim-chiqim, mol, savdo, savdo-sotiq, tovar, pul, to'lov, xaridor, bozorchi, olib-sotar, hujjat, chayqovchi kabilar shular jumlasidandir.

Aytish lozimki, nafaqat tijorat hujjatlari tilida balki fan-texnika, ishlab chiqarishning xilma-xil soha va terminlar majmui, ya'ni yig'indisi terminologiya deyiladi. Masalan, matematika terminologiyasi, arifmetika terminologiyasi, tibbiyot terminologiyasi, iqtisodiyot terminologiyasi kabilar.

Albatta terminologiya juda katta mavzu biz tadqiqotimiz davomida uning tijorat hujjatlari lingvistikasiga aloqador ba'zi qismlarini o'rganishga e'tibor qaratdik. Aynan tijorat hujjatlari tilidagi terminologik leksikani o'zi birgina tadqiqot ishi bilan o'rganib bo'lmaslik mumkin. Soha keng, fan-texnika esa kun sayin rivojlanib uning lisoniy birligi, terminologik tizimi ham yangi so'zlar terminlar bilan boyib rivojlanib ta'bir joiz bo'lsa takomillashib

bormoqda. Biz tadqiqotchi sifatida uning ba'zi qismlarinigina yoritishga, tadqiq qilishga urindik.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Albatta terminologiya tizimi bo'yicha tilshunos olimlar izlanishlar olib borib sohaning takomillashuviga o'z hissalarini qo'shib bormoqdalar. Shu o'rinda 2024-yilning mart oyida tilshunos olima, professor Durdona Xudoyberganovanning "Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" kitobi katta taqdimot bilan yosh olimlar, filolog tilshunoslar e'tiboriga havola etildi.

Bu esa aynan terminologiya tizimida izlanishlar olib borayotgan yosh tadqiqotchilar uchun dasturi amaldir. Mazkur risolaning so'z boshida olima shunday fikrlarni ilgari suradi: "O'tgan asrning so'ngi choragi XXI asrning oxiriga yetay deb qolgan birinchi choragida o'zbek tilshunosligi beqiyos terminologik lug'aviy birliklar bilan boyidi. O'zbek tilshunosligida shakllangan va shakllanib borayotgan yangi sohalar, yangi yo'nalishlarda terminlarni alohida sohalar tilida o'rganish zaruratini namoyon qiladi"[8]. Shu nuqtaga alohida e'tibor qaratish lozim. Olima *terminlarni alohida sohalar tilida o'rganish zarurati* yuzaga yuzaga kelganligiga urg'u bermoqda. So'zimiz boshida biz ham ana shu sohalar singari tijorat hujjatlari tilining terminologik leksikani katta bir tadqiqot ishi o'laroq yoritish, izlanish kerakligiga ishora berib o'tdik. Bugungi globalizm, nafaqat sohalarga, fanga balki til taraqqiyoti, lisoniy birliklar terminologik tizimlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmayapti. Biz bu ta'sirni yangi terminologik birliklarning shiddat bilan kirib kelayotgani misolida ko'rishimiz mumkin. Til nuqtai nazaridan iste'molga kirib kelayotgan yangi ajnabiy terminlarni o'rganish uni keng jamoatchilikning til iste'moliga qo'llashda bir muncha qulayliklar tug'dirish ehtiyojini oshiradi. Bu ehtiyojni qondirish tilshunos, xususan terminologiya bo'yicha ixtisoslashgan mutaxassislarning ilmiy izlanishlari natijasida yuzaga chiqadi. Ayni shu maqsadni ko'zlagan holda ilmiy ishimizning katta bir rejasini tijorat hujjatlari tilidagi terminologik leksikaga bag'ishlaganimiz, yuqoridagi ehtiyojning namunasi sifatida bilish mumkin. Hozirgi vaqtda ilmiy tadqiqot olib borayotgan filolog mutaxassislarda yangi paydo bo'lgan terminlarning izohli lug'atiga katta zarurat bor. Bu zaruratni tijorat hujjatlari tilidagi terminologik leksikani chuqurroq o'rganish ehtiyoji misolida ham ko'rish mumkin.

Bozor iqtisodiyotini rivojlanayotgani, uning rivoji hamda qonuniy asosini yanada mustahkamroq ta'minlash uchun tijorat usullarini ikki tomonlama hujjatlashtirish va bu orqali yuridik himoyalani lozimligini ko'rsatadi.

Tomonlar tijorat hujjatlari matnidagi terminologik leksika ma'nosini yaxshi tushunganida nizo kelib chiqmaydi. Bu esa ortiqcha ko'ngilsizliklarning oldi olinishiga ham sabab bo'ladi. Aslida ham fanning va ilmning maqsadi ana shu. Jamiyatdagi ortiqcha ko'ngilsizliklar, tushunmovchiliklarni oldi olinishiga xizmat qilish. Bu til iste'molchilari ishini va bir-biri bilan ijtimoiy kommunikatsiyani yaxshilashga sabab bo'ladi. Tijorat hujjatlari tilidagi terminologik leksika bilan tanishtirish esa tabiiyki tilshunos mutaxassislarning vazifasiga aylanadi. Aynan tijorat hujjatlari tilida terminologik leksika bo'yicha ilmiy izlanishlar yetarlicha bo'lmasa-da, ba'zi tilshunoslarning sa'y-harakatlarida bu mavzudagi terminlarning ayrim izohlari keltirilganiga guvoh bo'lamiz.

Biz yuqorida tilga olgan filologiya fanlari doktori, professor D.Xudoyberganovanning "Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" kitobida qator sohalar bilan birga aynan tijorat hujjatlari matnida uchraydigan terminologik birliklar ham izohlanganini ko'rish mumkin[8]. Albatta bu tijorat hujjatlari tilidagi barcha terminologik leksikani to'liq ifodasi

emas, ammo olib borilayotgan tadqiqotlarda bu sohada ancha siljish borligini ko'rsatib bera oladi. Izlanishlar davomida ma'lum bo'lishicha Alisher Navoiy milliy kutubxonasi fondida tijorat hujjatlari terminologiyasiga aloqador ba'zi lug'atlar mavjud [9-36.]. Tilshunoslik sohasida taniqli o'zbek tilshunoslarining asarlarini, xorijiy ilmiy adabiyotlar, turli lingvistik terminlarning izohli lug'atlaridagi Sh.Safarov, ma'lumotlarida qisman tijorat hujjatlaridagi terminologik leksikaning izohlarini ko'ramiz. Jumladan, A.Nurmonov, N.Mahmudov, M.Hakimov, D.Lutfullayeva, Sh.Usmonova, R.Davlatova M.Qurbonova, tadqiqotlarida M.Yo'ldoshev, A.Yo'ldoshev, Sh.Maxmaraimova kabi tilshunos olimlar tomonidan yaratilgan shuningdek, mazkur sohalar doirasida tilshunosligimizda amalga oshirilgan qator tadqiqotlarida ham ba'zi misollar keltirib o'tilgan[37;38].

**Natijalar.** Tadqiqotimiz davomida shu narsaga guvoh bo'ldikki, funksional uslublar orasida ilmiy va rasmiy uslublarda terminlar juda faol qo'llaniladi. Shu jihatdan ham terminlarni ilmiy adabiyotlar tili deb aytish mumkin. Bu haqda tilshunos M.Mukarramov o'zining "Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili" kitobida shunday deydi: Terminlarning haqiqiy yuzaga kelish va qo'llanish o'rinlari ilmiy adabiyotlar tilidir deb yozadi [1]. Haqiqatda ham tijorat hujjatlari tilida xolislik, aniqlik belgilari terminlarning ko'p qo'llanilishini talab etadi.

Ana shunday qo'llanilishiga ko'ra tijorat hujjatlari tilining terminologik leksikasini 3 guruhga ajratish mumkin.

1. Umumiste'moldagi terminlar; *hadya, homiylik, mansab, vazirlik, ish beruvchi, sug'urta, guvohnoma, jarima, yordam puli, tadbirkor, subsidiya, chegirma,*
2. Tijorat hujjatlari tilining faqat yozma shakliga xos terminlar; *pul ayanmasi, kafolat xati, tijoriy mulk, nodavlat tashkilotlari, qo'shimcha qiymat solig'i, ko'chmas mulk, mulkchilik shakli, ishonchnoma, vasiylik kengashi.*
3. Tijorat hujjatlari tilida chetdan o'zlashgan terminlar; *kontrakt, aksiz, oferta, notarius, kredit,*

Ayrim tijorat hujjatlari terminlari til va jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda hujjatlar tilida grammatik munosabatlarga kirishib, maxsus hodisa, narsa predmet voqelik holatini nomlash vazifasini ham huquqiy hujjatlar nomini ifodalovchi, bajaradi.

Huquqiy hujjatlar nomini ifodalovchi tijorat hujjatlari terminlari. *Order, akt, guvohnoma, mehnat daftarchasi,*

Bevosita moliya masalasiga tegishli holatlarni ifodalovchi tijoriy terminlar; *jarima, soliq, boj, pensiya, ish haqi, yordam puli, mukofot puli, aylanma pul, gonorar, maosh.*

Lug'aviy birliklarning, jumladan, terminlarning o'zaro munosabati haqida to'xtalar ekanmiz sinonimiya masalasi ham ko'ndalang bo'ladi. Mavzuga chuqurroq kiradigan bo'lsak hozirgi o'zbek tijorat hujjatlari terminologiyasida ko'plab tushunchalar ikki va undan ortiq terminlar bilan ifodalab kelinmoqda.

Bir tomondan olib qaralganda, sinonimlar adabiy til uslubi ham jonli so'zlashuv nutqini bezashda faol bo'lsada, terminlarga boy bo'lgan ilmiy uslub uchun buni ijobiy holat deb bo'lmaydi. Sababi sinonimlar tijorat hujjatlari tilidagi bir tushunchani rasmiy ifodasi bo'la olmaydi. Buning natijasida informatsiya almashinuvida qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Aytish mumkinki, o'zbek tilining tijorat hujjatlari terminologiyasida ham ko'plab sinonimlar uchraydi. Boshqa terminologik sohalarda bo'lganidek o'zbek tijorat hujjatlari terminologiyasida ham o'z va o'zlashgan sinonimik qator uchraydi.

Tijorat hujjatlari namunalariga oid manbalar bilan tanishganimizda sinonim terminlar bilan oid ba'zi holatlar uchradi:

1. O'z terminlar ona tilimizga o'zlashib ketgan fors-tojikcha yohud arabcha bo'lishi mumkin. Sinonimiyasi quyidagicha:

*Nasiya-qarz, burch*

*Muassasa-mahkama*

*Sarmoya-mablag'*

*Ish haqi-maosh*

*Mulk-boylik*

2. O'zlashma termin va uning o'zbek tilidagi sinonimlari:

*Zayom-qarz*

*Hisob-adad, miqdor, sanoq, son*

*Valyuta- xorij puli*

*Mandat-vakolatnoma*

*Auksion-kim oshdi savdo*

*Moliya- biror shaxs, oila, jamoa, muassasa tashkilot yoki davlat tasarrufidagi pul mablag'lari.*

*Hujjat-kimsaning kimligini (shaxsiyatini), mashg'ulotini, biror tashkilotga a'ziligini tasdiqlovchi guvohnoma (pasport, guvohnoma, talabalik bileti, a'zolik bileti va shu kabilari).*

Shu bilan birga tijorat hujjatlari terminologiyasida yakka va birikma terminlar ko'plab ishlatilayotganini ko'rish mumkin:

*Yozishma- aloqa qog'ozi*

*Talash-o'g'irlash talonchilik qilish*

*Bildiruvchi-aytuvchi, arz qiluvchi*

Birikma terminlarining ham sinonimlashib kelishini misollarda ko'rish mumkin:

*Pul yuborish-pul o'tkazish*

*Meros qabul qilish-meros olish*

*Qayta ro'yxatga olish-qayta ro'yxatdan o'tkazish.*

Bir so'z bilan aytganda hozirgi o'zbek tijorat hujjatlari terminologiyasida sinonimlarni yuzaga keltiruvchi faol usul bu kalkadir . Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak chetdan so'z qabul qilish natijasida (yuqoridagi misollarda ham ko'rganimizdek) tilda bir terminning bir necha ko'rinishlari paydo bo'ladi. Keyingi davrlarda ish yuritishning rivojlanishi ham ko'plab birikma oqimining kirib kelishiga sabab bo'ldi:

*virtual kutubxona*

*jismoniy shaxsning identifikatsion raqami*

*soliq to'lovchining identifikatsion raqami.*

Ahamiyat qaratadigan bo'lsak terminlar asosan chalkash yo'li bilan hosil qilingan bo'lib yangi tushunchalar bilan birga iste'molga kirib kelgan.

*Elektron hujjat yuritish*

*elektron hujjat aylanishi*

*elektron hujjatni jo'natuvchi*

*elektron hujjatning asl nusxasi va hokazo.*

Tadqiqotchi Sadinova Nafisaning filologiya fanlari nomzodi PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan "O'zbek tili ish yuritish terminologiyasi" nomli dissertatsiyasida ham ish

yuritish hujjatlarida terminlarning chalkash yo‘li bilan hosil bo‘lganiga ba‘zi misollar keltirib o‘tilgan.

Tadqiqotchi terminlar haqida so‘z yuritar ekan, ish yuritish terminologiyasida birikma terminlar miqdor jihatdan asosiy o‘rinni egallashini ta’kidlaydi.

Tijorat hujjatlari terminologiyasida birikma terminlar morfologik jihatdan 2 xil ko‘rinishi xususan “ot+ot”, “sifat +ot”, modellari kengroq qo‘llaniladi.

1. Ot+ot:

*Jamoat tashkiloti*

*Jamoat transporti*

*Hisob varaq‘i*

*Chek nusxasi*

*Chiqim daftari.*

2. Sifat+ot:

*Mayda mulkchilik*

*Aylanma pul*

*Kasaba uyushma*

*Yuridik shaxs*

*Jismoniy shaxs*

*Ulgurji savdo*

*Chakana savdo.*

Albatta tijorat hujjatlari tilida aksariyat yuridik terminlar faol qo‘llanilsa-da, ammo ot+fe‘l shakli nisbatan kam qo‘llaniladi.

Ammo murakkab tijorat hujjatlari terminlari uch va undan ko‘p so‘zdan tashkil topgan terminlar bo‘lib ular so‘z biriklamalari orasida ko‘p uchratish mumkin.

Bunday tijorat hujjatlari terminlariga uch komponentli: *qo‘shimcha qiymat solig‘i, tashqi savdo aylanmasi, moddiy texnik baza, xususiy mulkchilik shakli, ikki tomonlama monopoliya.*

To‘rt komponentli: *aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, aholiga sifatli ijtimoiy xizmat, doimiy yashash joyini o‘zgartirish, ikki tomonlama soliqqa tortish.*

Besh komponentli: *ko‘chmas mulkka egalik qilish huquqi, aholini ijtimoiy muhofaza qilish shakllari, kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin.*

*“Ot+ot” modelidagi birikma terminlarda so‘zlar asosan moslashuv yo‘li bilan birikadi: abonentlar bo‘limi, bo‘nak hisoboti, mualliflik huquqi. Ko‘pincha moslashuv yo‘li bilan birikkan birikmalarda qaratqich kelishigining belgisiz qo‘llanishi kuzatiladi: qalam haqi, uy manzili, aksiyadorlar jamiyati, ijara haqi, idora arxivi aksiyadorlik banki, arab raqami, xalq kutubxonasi.*

*“Sifat+ot” modelidagi birikmalar tijorat hujjatlari terminologiyasida faol qo‘llaniladi: ma‘muriy faoliyat, faol ish, tijoriy hujjat, ochiq arxiv.*

**Xulosalar.** Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tijorat hujjatlari tili keng qamrovda o‘rganiladigan, birgina tadqiqot bilan muammoni hal qilib bo‘ladigan tor mavzu emas. Uning aynan terminologik leksikaga aloqador qismining o‘zi katta izlanishni talab etadi. Bu mavzuda qator izlanuvchilar turli katta kichik tadqiqotlar olib borgan bo‘lsada, ammo uning hali tadqiq etilmagan tomonlari juda ko‘p. Tijorat hujjatlari tilidagi terminologik leksikaning ot+ot, sifat+ot modeli bo‘yicha ko‘proq so‘z yasalishiga oid misollarni iste‘molga kiritish zarurati bor. Bu zarurat tilning ijtimoiy ehtiyojidan kelib chiqqan. Maqolada unga ba‘zi misollarni keltirib o‘tdik.

**Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Muhiddinova X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qtuvchi.
2. Головин Б.Н. Лингвистические основы учения о терминах. –Москва, 1987.
3. Ko'chimov S.N.O'zbekiston Respublikasiqonunlarinig tili Toshkent, 1997
4. Sh. N. Ko'chimov Huquqiy normalarni o'zbektilida ifodalashning ilmiy-nazariy muommolari. Toshkent, 2004
5. O'zbek tili grammatikasi. 1-qism. Toshkent:Fan, 1975.
6. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M.,Hoiyev A., Rasulov I., Doniyorov X., Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism.-Toshkent: O'qituvchi, 1980.-B.371.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Termin>
8. Xudoyberganova D. Zamoaviy tilshunoslikning izohli lug'ati.-Toshkent: booknamy print. 2024.- B. 4.
9. Беделадзе, Ниёзматов Ш. Инглизча-узбекча-русча тижорат лугати. — Тошкент: А. Кодирий номидаги халк мероси, 1977
10. Мусаев К.М. Иктисодиёт. Молия. Банк. Тижорат: инглизча-узбекча лугат. Беш жилдлик. Т.1. — Тошкент: Укитувчи, 1998
11. Саиджонов С.Й. Бозор иктисодиётига доир бази атамаларнинг изохли лугати. — Тошкент: Адабиёт ва санат, 2000
12. Либман Г.И., Филатов О.К. Кискача иктисодий лугат. — Тошкент: Узбекистон, 1988
13. Назарян А.Г. Французско-русский учебный словарь лингвистической терминологии. — Москва: Высшая школа, 1989
14. Тухлиев Н. Ишбилармонлар лугати. — Тошкент, 1993,
15. Дустмухаммедов Ж. Инглизча-русча-ўзбекча иктисодиёт атамалари лугати. — Тошкент, 1994
16. Хайдар М. Иктисод-банк изохли лугат: монография. — Тошкент: Минхож, 1996
17. Розенберг Дж.М. Бизнес. Менежмент: Терминологический словарь. — Москва: ИНФРА-М, 1997
18. Бернар И. Толковый экономический и финансовый словарь: франц, рус., англ., нем., испан. терминология: в 2 т. Т.1. — Москва, 1997
19. Бернар И. Толковый экономический и финансовый словарь: франц, рус., англ., нем., испан. терминология: в 2 т. Т.2. — Москва: Международные отношения, 1997
20. Курбонов Ш. Менежмент буйича кискача лугат. — Тошкент, 1998
21. Гатаулин А.М. Экономическая теория: толковый терминологический словарь. — Москва: Колос, 1998
22. Эргашев Т.Иктисодий атамаларнинг узбекча-инглизча-русча лугати. — Тошкент: Шарк, 2001
23. Кураков В.Л. Маркетинг и менежмент: словарь-справочник. — Москва: Вуз и школа, 2001
24. Мусаев К.М. Инглизча-русча-узбекча иктисодий лугат. I-жилд; 2-жилд. — Тошкент: Фан, 2001,
25. Батрасов В.И. Экономический словарь справочник. Муром, 2001
26. Кузнецов А.В. Испанско-русский словарь терминологии Международного валютного фонда. Москва, 2001
27. Семенов А.К. Терминология менежмента: словарь. — Москва, 2002;
28. Каримова И. Банк терминларининг французча-русча-узбекча лугати. — Тошкент: Манавият, 2002
29. Новый экономический и юридический словарь: 10000 терминов // Под ред. Азрилияна А.Н. — Москва: Институт новой экономики. 2003
30. Агеева Ю.Б. Экономический словарь (для бухгалтера, аудитора, директора) — Москва: Бератор, 2003

31. Ермеленко А.В. Испанско-русский, русско-испанский терминологический словарь: банки, биржи, финансы. - Москва: Тезаурус. 2004
32. Боркова Е.А. и др. Словарь по экономической теории: в 2 ч. — Ч.1: Микроэкономика — Новосибирск: СибУПК. 2004;
33. Максимова Т.В. Экономическая терминология: англо-русский словарь сокращений. — Волгоград: ВолГУ, 2004
34. Кураков и др. Краткий словарь-справочник по экономике. — Москва: Вуз и школа. 2004
35. Белорусова В.А. Испанско-русский, русско-испанский коммерческий словарь: — Москва: Русский язык. 2005
36. Факов В.Я. Финансовый словарь: в 2 т. — Москва: 29
37. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. — Тошкент: Академнашр, 2012. — 3-жилд. -376 б.
38. Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Узбек тили ва адабиёти — Тошкент, 1986

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 2 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).